



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavatov T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOT KO'RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME'YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	45
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xamroqulov A.X.	
GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....	49
Daminova Barno Esanovna Asrorova Nilufar Bobur qizi Botirova Shodiya Turdimurod qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI	56
Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna	
XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	60
Kurbanbayev Shoxruh Mirzo Zafar o'g'li	
XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI.....	65
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	
GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI, EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	69
Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	



O'ZBEKISTONDA GID VA EKSKURSOVODLAR SOHASIDA INNOVATSIYALAR VA YANGILIKLAR.....	73
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
Xojaqulova Nargiza	
MA'LUMOTLAR BAZASIDA MURAKKAB SO'ROVLAR YARATISHNING NAZARIY	
ASOSLARI, FORMAL MODELLARI VA OPTIMALLASHTIRISH NAZARIYASI.....	78
Daminova Barno Esanovna	
Shermatova Shaxzoda Bakhtiyor qizi	
Ne'matova Sevinch Ismat qizi	
Xolmakhmatov Navruzбек Farrux o'g'li	
THE ROLE OF CLOUD COMPUTING IN ENHANCING ENTERPRISE PERFORMANCE.....	83
Daminova Barno Esanovna	
Jumayev Khayit Fayzullo ugli	
Normuminov Zayniddin Bekmurod ugli	
Bozorov Ilkhom Soatmurod ugli	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE LEARNING APPLICATIONS	
IN MODERN INFORMATION SYSTEMS.....	88
Daminova Barno Esanovna	
Nurmamatov Nodirbek	
Turdimurodov Tulkin	
Xudoyorov Sardor	
RAQAMLI INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI VA TATBIQI	93
Daminova Barno Esanovna	
Jo'rayeva Xusniya Murtozoqul qizi	
Beshimova Munisa Usmon qizi	
BIG DATA ANALYTICS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES FOR DECISION-MAKING PROCESSES.....	97
Daminova Barno Esanovna	
Narimonova Sevinch Shaka kizi	
Pulatkhonova Sitabonu Vohid kizi	
BLOCKCHAIN TECHNOLOGY AND ITS IMPACT ON SECURE DIGITAL TRANSACTIONS	102
Daminova Barno Esanovna	
Ruziyeva Oynisa Rahimkul kizi	
Hamidova Nozima Ulugbek kizi	
AHOLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM DARAJASINING ROLI.....	108
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	
CYBERSECURITY CHALLENGES AND SOLUTIONS IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION	112
Daminova Barno Esanovna	
Lapasova Sevinch Elmurod kizi	
Ismoilova Rushana Kuvondik kizi	
ПРЕВРАЩЕНИЕ ТАШКЕНТА В РЕГИОНАЛЬНЫЙ АВИАЦИОННЫЙ	
ХАБ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ	
ОТНОШЕНИЙ И СИСТЕМНЫЕ УГРОЗЫ.....	117
Убайдуллаев Сирожиддин Жамшид угли	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RAQAMLI QIYOFASI: SUN'IY INTELLEKT	
VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI SO'NGGI TENDENSIYALAR.....	124
Narmanov Ulug'bek Abdugapparovich	
Jumaboyev Abror Shuhrat o'g'li	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI VA	
ULARNING SAMARADORLIGI.....	129
Egamnazarova Gulnoza Shuxrat qizi	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	133
--	-----

Ismailov Baxit Abdireymovich

Jumaniyazov Rashid Azamatovich



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARINI QO'LLASH MASALALARI



Ismailov Baxit Abdireymovich

Qoraqalpoq davlat universiteti,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasida dotsenti (PhD),
Tel.: +998 97 220 20 79
E-mail: Ismailov_Bakhit79@mail.ru



Jumaniyazov Rashid Azamatovich

Qoraqalpoq davlat universiteti,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar mutaxassisligi,
2-bosqich guruhi talabasi,
Tel.: +998 91 377 14 00

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri hamda MHXSni joriy etishning afzalliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, blokcheyn, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, elektron tijorat, investitsion jozibadorlik, moliyaviy shaffoflik, xalqaro standartlar, raqamlashtirish, korporativ boshqaruv.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of applying International Financial Reporting Standards (IFRS) in the context of the digital economy in Uzbekistan. It also analyzes modern approaches to financial reporting during digital transformation, the impact of information and communication technologies on the accounting system, and the advantages of implementing IFRS.

Keywords: digital economy, International Financial Reporting Standards (IFRS), accounting, financial reporting, digital transformation, information and communication technologies, blockchain, artificial intelligence, cloud technologies, e-commerce, investment attractiveness, financial transparency, international standards, digitalization, corporate governance.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты применения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в условиях цифровой экономики Узбекистана. Кроме того, проанализированы современные подходы к формированию финансовой отчетности в процессе цифровой трансформации, влияние информационно-коммуникационных технологий на систему бухгалтерского учета, а также преимущества внедрения МСФО.



Ключевые слова: цифровая экономика, Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), бухгалтерский учет, финансовая отчетность, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, блокчейн, искусственный интеллект, облачные технологии, электронная коммерция, инвестиционная привлекательность, финансовая прозрачность, международные стандарты, цифровизация, корпоративное управление.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish, davlat boshqaruvi hamda moliyaviy tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazkur yo'nalishning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan, moliyaviy hisob-kitob va hisobot tizimlarini raqamlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan islohotlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bunday sharoitda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni qo'llash moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchiligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Shu bilan birga, MHXS investorlarning ishonchini mustahkamlash, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda korporativ boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi. MHXSning joriy etilishi moliyaviy hisobotlarning sifati va obyektivligini oshirib, moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy operatsiyalar ustidan samarali nazorat tizimini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi hujjatlarini unifikatsiya qilish, ularning tahlil qilinishini va talqin etilishini soddalashtirish hamda xalqaro axborot almashinuvi samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlar an'anaviy shakllardan farqli ravishda tezkor, integratsiyalashgan va real vaqt rejimida shakllantirilishi talab etiladi. Bu esa buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilishni, zamonaviy dasturiy mahsulotlar, raqamli platformalar hamda axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda moliyaviy hisobotlarni tuzishning umumiy prinsiplari, ularning ishonchiligi, to'liqligi va xolisligini ta'minlash talablari belgilab berilgan bo'lib, mazkur qonun raqamli transformatsiya jarayonida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [2, 3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda jamiyat hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiya quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, keng polosali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash.
2. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirish, innovatsion yo'nalishlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, elektron tijorat hamda mobil to'lov tizimlarini takomillashtirish.
3. Raqamli fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish, elektron ta'limni keng joriy etish hamda fuqarolar va biznes subyektlari uchun ochiq raqamli axborot tizimlarini yaratish.

Mazkur strategiyaning izchil amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. Xususan, xalqaro raqamli platformalar va internet resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaytirildi, bu esa zamonaviy axborot makoniga integratsiyalashuvni kuchaytirdi. Shuningdek, IT Park faoliyati yanada rivojlantirilib, dasturiy ta'minot ishlab chiqish, raqamli startaplarni qo'llab-quvvatlash, konsalting xizmatlarini ko'rsatish hamda mahalliy IT-kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi uchun zarur infratuzilma yaratildi.

Bundan tashqari, elektron tijorat va mobil to'lov tizimlarini rivojlantirish, ushbu bozorga kirishdagi ma'muriy to'siqlarni qisqartirish hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Telekommunikatsiya infratuzilmasining izchil rivojlanishi natijasida mobil internet xizmatlari sifati va qamrovi kengaydi, bu esa raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi.

Umuman olganda, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi O'zbekistonning raqamli rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish uchun mustahkam institutsional asos yaratmoqda.



Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy axborotlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotgani bilan izohlanadi. Korxonalar faoliyatining murakkablashuvi, biznes jarayonlarining diversifikatsiyalashuvi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi moliyaviy hisobotlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini talab etmoqda. Shu bilan birga, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarni tezkor, ishonchli hamda shaffof moliyaviy axborot bilan ta'minlash zarurati ham ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy islohotlar konsepsiyasida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, davlat rahbari: "Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir", deb ta'kidlaydi [4]. Ushbu yondashuv moliyaviy hisobot tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va MHXS asosida yuritish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur tizimning samarali tashkil etilishi moliyaviy axborotlarning ishonchligini ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash hamda O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarda moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini buxgalteriya hisobi tizimiga integratsiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Azizova M.I. va Ishanxodjayeva D.E. o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari sifatida sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn, buyumlar interneti (IoT) hamda elektron tijorat tizimlarini alohida ajratib ko'rsatadilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, mazkur texnologiyalarning iqtisodiy boshqaruv tizimlariga keng joriy etilishi natijasida moliyaviy axborotlarni shakllantirish jarayonlari tubdan takomillashib, zamonaviy yondashuvlarni qo'llash zarurati ortib bormoqda [5]. Bu esa moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda texnologik omillarning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Maxmudov S.K. moliyaviy hisobotning mazmuni va shakliga alohida e'tibor qaratib, uni foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Muallifning fikricha, xalqaro tajribani milliy amaliyotga joriy etishda har bir mamlakatning institutsional, huquqiy va iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shu bois xalqaro standartlarni milliy sharoitlarga moslashtirish moliyaviy hisobotlarning samaradorligi va amaliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi [6]. Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlar sifatini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham mazkur masala keng yoritilgan. Jumladan, Uzhva A., Belinska S. va Lazarieva O. raqamli iqtisodiyot sharoitida hisob va tahliliy ta'minot tizimini tadqiq etib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish moliyaviy hisobotlarni real vaqt rejimida shakllantirish imkoniyatini yaratishini ta'kidlaydilar [7]. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotlarning tezkorligi, dolzarbligi va ishonchligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Kamordzhanova N. va Selezneva A. o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi hisob obyektlarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadilar. Mualliflarning fikricha, raqamli aktivlar, blokcheyn texnologiyalari hamda boshqa innovatsion moliyaviy vositalarning rivojlanishi moliyaviy hisobotlarning tarkibi va mazmunini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish xalqaro standartlarga mos, shaffof va ishonchli moliyaviy axborotlarni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari tizimli ravishda qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasini tanlashda mavzuning ko'p qirrali hamda transformatsion xususiyatlari inobatga olinib, sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot yondashuvlari o'zaro uyg'unlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni qo'llash o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlardir. Raqamli texnologiyalar yordamida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini modernizatsiya qilish MHXS talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni sezilarli darajada soddalashtiradi va tezlashtiradi. Natijada qo'l mehnati hajmi qisqaradi, inson omili bilan bog'liq xatolar kamayadi hamda moliyaviy axborotlarning sifati va ishonchliligi oshadi.

Masalan, elektron bank xizmatlari (e-banking) korxonalarga moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirish, asosiy vositalar hisobi bo'yicha yozuvlarni shakllantirish, xarajatlarni hisobga olish va balans ma'lumotlarini tezkor yangilash imkonini beradi. Bu esa buxgalteriya hisobi jarayonlarining samaradorligini oshirib, vaqt va resurslarni tejashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish korxonalarga moliyaviy hujjatlarni elektron shaklda saqlash, qayta ishlash va almashish imkoniyatini yaratadi. Natijada buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash va qayta ishlash muddati qisqarib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy axborotlarning tezkorligi ta'minlanadi.

MHXSni qo'llash buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritish jarayonlarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Mazkur standartlar moliyaviy hisobotlarni yagona format asosida tayyorlashni nazarda tutadi, bu esa moliyaviy ma'lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish va xalqaro miqyosda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar va MHXSni uyg'un holda qo'llash buxgalteriya hisobi, moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlash hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada korxonalarning raqobatbardoshligi kuchayib, ularning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi barqaror rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratiladi.

O'zbekistonda MHXSning joriy etilishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va biznes samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Birinchidan, MHXS dunyoning 130 dan ortiq mamlakatida qo'llaniladigan xalqaro moliyaviy hisobot standartidir. Ushbu standartlarga rioya etish korxonalarga xalqaro savdo faoliyatida faol ishtirok etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, MHXSning joriy etilishi O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, MHXS moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlovchi yagona tamoyillarni belgilaydi. Mazkur standartlar korxonalarda moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish, majburiy audit tizimini takomillashtirish hamda kreditorlar va investorlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish imkonini beradi. Natijada mahalliy korxonalarga bo'lgan ishonch ortib, investitsiya muhiti yanada yaxshilanadi.

Uchinchidan, MHXSni joriy etish zamonaviy buxgalteriya hisobi, ma'lumotlar bazalari va raqamli axborot tizimlaridan samarali foydalanishni rag'batlantiradi. Bu esa moliyaviy natijalarni aniqroq prognozlash, biznes jarayonlarini samarali rejalashtirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

O'z navbatida, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishi ham MHXSni keng joriy etish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida korxonalar katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimlari va xalqaro standartlarni qo'llash samaradorligini yanada oshiradi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot elektron tijorat, fintex xizmatlari va boshqa innovatsion biznes modellarining rivojlanishini jadallashtirmoqda. Bunday sharoitda MHXSni qo'llash moliyaviy hisobotlarning aniqligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash orqali investorlar ishonchini mustahkamlaydi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda korxonalarning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot va MHXSning o'zaro uyg'un rivojlanishi korxonalarda zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish, moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini yanada yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni samarali qo'llashga ta'sir etuvchi omillar asosan uch yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, "Normativ-huquqiy bazani raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq izchil takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi." Ikkinchidan, axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya mexanizmlarini yanada rivojlantirish va ularning o'zaro uyg'un ishlashini ta'minlash boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining raqamli



kompetensiyalarini izchil rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, raqamli aktivlar va yangi iqtisodiy obyektlarni hisobga olish bo'yicha yagona metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va taqqoslanuvchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarning sifati yuqori bo'lishini hamda bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu tizimlarni keng qo'llash uchun zarur bo'lgan raqamli infratuzilma va institutsional sharoitlarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning metodologik asoslarini raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq takomillashtirish;

- raqamli aktivlar va yangi turdagi iqtisodiy obyektlarni hisobga olish bo'yicha zamonaviy standartlar hamda uslubi tavsiyalarni ishlab chiqish;

- MHXSni milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish;

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda mutaxassislarining raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot va MHXSning o'zaro uyg'un rivojlanishi O'zbekistonda korxonalarning moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshlikni yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan izchil islohotlar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va xalqaro standartlar asosida samarali moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4800657>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>.
4. Mirziyoyev, Sh. (2017–2026). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga oid nutqlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.
5. Azizova, M. I., & Ishanxodjayeva, D. E. (2023). Raqamli iqtisodiyotning muammo va istiqbollari. Moliyaviy texnologiyalar jurnali.
6. Maxmudov, S. K. (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning muammolari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
7. Uzhva, A., Belinska, S., & Lazarieva, O. (2022). Accounting and Analytical Support of Enterprises in the Digital Economy. Naukovyi Visnyk Natsionalnoho Hirnychoho Universytetu.
8. Kamordzhanova, N., & Selezneva, A. (2021). The Impact of the Digital Economy on Accounting, Reporting and Audit.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>